

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

**“MOLIYA” KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida  
*UDK: 339.3-048.35(575.1)*

**G‘OFUROV TEMUR BAXROM O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH  
VA UNI TAKOMILLASHTIRISH**

**70410401 – “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”  
magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan**




**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar: PhD., dotsent M.J. Bauyetdinov**

**TOSHKENT – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi “ Moliya ”  
kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

6 -sonli bayonnoma “ 20 ” aprel 2023 y.

Kafedra mudiri:	<u>X. Xudoyqulov</u>	 imzo	_____	sana
Ilmiy rahbar:	<u>M. Bauyetdinov</u>	 imzo	_____	sana
Talaba:	<u>T. G‘ofurov</u>	 imzo	_____	sana

Dissertatsiya “Moliya va buxgalteriya hisobi” fakultetida 2023 yil “ 19 ” may

№ MBF-01/7 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

## ANNOTATSIYA

O'zbekistonda so'nggi yillarda budjet-soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hususan, budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish va uni kuchaytirish, bu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, davlat siyosati darajasidagi muhim masalalardan biriga aylandi. Shu bois tadqiqot davomida mazkur mavzu doirasida atroflicha izlanishlar olib borildi. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid me'yoriy xujjatlar o'rganib chiqildi, adabiyotlar sharhi tayyorlandi. Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish uchun, davlat xaridlari tizimining holati va amalga oshirilayotgan xaridlar hamda tovar (ish, xizmatlarni) yetkazib berish holati statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi va turli tahlil usullarini qo'llagan holda tahlil qilindi. Undan tashqari davlat xaridalarini tashkil etish, amalga oshirish va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorij tajribasi ham o'rganildi. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida O'zbekistonda davlat xaridlarini tashkil etish va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab shiqilgan.

***Kalit so'zlar:*** *auksion, tender, tanlov, korrorativ xaridlar, davlat byudjeti, davlat maqsadli jamgarmalari, byudjet mablag'lari, davlat xaridlari, xarid tizimi, g'olib ishtirokshi, limit summasi, davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali, zakalat summasi, savdolar to'grisidagi e'lon, kishik bizes ba hususuy tadbirkorli.*



## *Summary*

The reforms implemented in the budget-tax system in Uzbekistan in recent years, in particular, establishing strict control over the targeted spending of budget funds and strengthening it, ensuring the openness and transparency of this process, have become one of the important issues at the level of state policy. Therefore, during the research, extensive research was conducted on this topic. In particular, other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and normative documents on the topic were studied, and a literature review was prepared. In order to increase the practical significance of the scientific work, the state of the state procurement system and the state of procurement and supply of goods (work, services) were studied on the basis of statistical data and analyzed using various analytical methods. In addition, advanced foreign experience in the organization, implementation, and improvement of public procurement was studied. On the basis of the studied and analyzed information, scientific and practical conclusions, proposals, and recommendations were developed on the organization of public procurement in Uzbekistan and its improvement.

**Keywords:** *auction, tender, competition, corporate procurement, state budget, state special funds, budget funds, state procurement, procurement system, winning bidder, limit amount, special information portal on state procurement, mortgage amount, sales The announcement, small businesses are especially entrepreneurial.*

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
<b>I-BOB. KIRISH.....</b>	<b>10</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	11
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	13
1.4. Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.....	14
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	15
<b>II-BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>17</b>
2.1. Kirish.....	17
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	17
2.3. Mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	27
2.4. Xulosa.....	31
<b>III-BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....</b>	<b>36</b>
3.1. Tadqiqot dizayni.....	36
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	36
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	37
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	37
3.5. Tadqiqot jaryonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	37
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	39

<b>IV-BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>40</b>
4.1. Elektron doʻkon orqali amalga oshirilgan xaridlar tahlili.....	40
4.2. Davlat xaridlarida boshlangʻich narxni pasaytirish mexanizmi orqali oʻtkazilgan auksion savdolarining tahlili .....	47
4.3. Tahlillardan olingan natijalar sharxi.....	57
<b>V-BOB. XULOSA.....</b>	<b>59</b>
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	59
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalar.....	60
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	63
<b>Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....</b>	<b>65</b>
<b>Ilovalar</b>	



## 1-BOB. KIRISH

Jahon iqtisodiyotida bugungi kunda keskin raqobat muhiti, innovatsion taraqqiyot, moliyaviy texnologiyalar qo'llanish doirasining kengayib borishi natijasida davlat xaridlarini amalga oshirish yuzasidan xaridlarni samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro moliya tashkilotlari, reyting agentliklari ham davlat xaridlarini samarali tashkil qilish va boshqarish masalalariga doir izlanishlar natijalarini e'lon qilib kelmoqda. Masalan, Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida davlat xaridlari mamlakat yalpi ichki maxsulotining 15-25 foizini tashkil etadi. Tadqiqotlarda davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlarining samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash masalalari keng yoritilgan. Lekin davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali budjet mablag'larini iqtisod qilishga erishish masalalari yetarlicha ochib berilmagan. Bu, o'z navbatida, budjet mablag'larini yuqori natijadorlik asosida boshqarish borasida xalqaro miqyosda muntazam ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Jahon amaliyotida davlat xaridlari bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda va ushbu tadqiqotlarda rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham davlat xaridlariga alohida e'tibor qaratilayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Tadqiqotlar to'g'ri va samarali tashkil etilgan davlat xaridlari, mahalliy ishlab shiqaruvchilar uchun raqobatbardosh bozorni ta'minlashga xizmat qilishi borasidagi hulosalarni shiqarishga zamin yaratmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda, eng avvalo xaridlar jarayonini tartibga soluvchi normativ-huquqiy ba'zani tahlil qilish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishga e'tibor qaratilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt orqali rivojlantirish jarayonida davlat xaridlarini amalga oshiruvchi budjet tashkilotlarini faoliyat yuritishlari uchun zarur tovar (ish, xizmat)lar bilan o'z vaqtida, kerakli miqdor va turda, sifatli hamda maqbul narxlarda ta'minlash